



CANADA



CANADA

ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLARNING AMALIY AHAMIYATI

Qahhorova Muxlisa Umarqulovna

Radjapova Nargiza Raximqulovna

Navoiy viloyati Navbahor tumani

5- umumiy o'rta ta'lim maktabi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari

Karimova Mohigul Islomovna

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim jarayonida yangi interfaol metodlarni qo'llash dars sifati samaradorligini oshirishga xizmat qilishi, o'qitish jarayonida zamonaviy yondashilganda o'quvchilarining hamkorlikda ishlashiga va qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotlarni o'zlashtirish haqida mushohada yuritilgan.*

Tayanch so'zlar: *interfaol metodlar, dars samaradorligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'quv jarayoni, ko'nikma, malaka, dars jarayoni, intellektual salohiyat.*

Mustaqillik sharofati bilan respublikamizda yangilanish, rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayotimiz umumjahon andozalariga mos taraqqiyot yo'naliishlariga jadal sur'atlar bilan kirib bormoqda. XXI asr yoshlarini har tomonlama rivojlangan, yetuk dunyoviy fikr yuritadigan, bilimli barkamol shaxslarni jahon ta'lim standartlariga mos ravishda tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir.

Yangi asr o'qituvchisi pedagogik - psixologik jihatdan chuqur bilimga egaligi, intellektual salohiyatning yuksak darajadaligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg'or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv jarayoniga tatbiq etilayotgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun yaratilgan "Davlat ta'lim standarti"da o'quvchilarining bilishlari zarur bo'lgan majburiy bilimlar hajmi aniq ko'rsatilgan. Ularni o'quvchilarga yetkazish, o'quvchilarni faqat puxta bilim olibgina qolmay, balki mustaqil ravishda o'qib olish va ijodiy izlanishga yo'naltirish, o'zlaridagi qobiliyatni rivojlantira borish ko'nikmalarini orttira olish

uchun o'qituvchilar yangi pedagogik texnologiya asosida pedagogikaning turli shakl va usullaridan foydalana olishlari zarur bo'ladi.

Hozirgi kunda barcha ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanishga erishilmoqda. Bu esa interfaol ta'lim asosida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning mazmun-mohiyatini to'liq tushunib yetishga va ularni samarali, qiziqarli, sifatli bo'lishini ta'minlashga ko'maklashadi. "Interfaol usullaridagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingen axborotlarni faollikda hal

etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Interfaollik – bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni bunda o`quv-biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter yordamida) yoki o'quvchining o'zaro muloqotiga asosan kechadi”

Interfaol ta'lism asosini interfaol metodlar tashkil etadi. Ta'lism jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish, ta'lism oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar sanaladi. Ona tili darslarida zamonaviy usullardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda mavzuni o'zlashtirishda yaxshi samara beradi.

Umuman olganda interfaol metodlar ta'lism-tarbiya sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni ta'minash, yagona maqsad sari intilish, o'quvchilarning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda katta amaliy ahamiyatga ega.

1. Ta'lism jarayonida interfaol metodlarni qo'llash dars sifati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

2. O'qitish jarayonida zamonaviy yondashilganda o'quvchilarning hamkorlikda ishlashiga va qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotlarni o'zlashtirishiga imkon tug'iladi.

3. Interfaol metod asosida ta'lism jarayoni qatnashchilarining faolligi ta'minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi kabi mashqlarni amalda qo'llashda ona tili fanining o'zaro integratsiyasi grammatik tushunchalarni o'zlashtirishni zerikarli ishdan faollikka undovchi qiziqarli ishga aylantiradi. Ona tili darslarida mustaqil ishlarni tashkil etishda tanlangan mashqlar har tomonlama ta'limiyl va tarbiyaviy yo'nalishda, rang-barang mavzularda, shaklan va mazmunan mukammal, mantiqan to'g'ri, tili sodda va ravon, o'quvchi uchun tushunarli bo'lish maqsadga muofiqdir. Ana shundagina matn, matn yaratish va matn tahlil qilish o'quvchi uchun zarur bo'lgan natijani beradi hamda kommunikativ savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug' va kelajagi farovon bo'ladi. T.: "O'zbekiston", 2019.
2. Yo'doshev J., Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lism - sifat kafolati. - Toshkent, 2008.
3. Ro'ziyev D., Usmonboyeva M., Xoliqova Z. "Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. – Toshkent, 2013. 146-b.